

# HAMBURG, GERMANY CONFERENCE-2022 PROCEEDINGS

MAY 4TH-5TH,  
2022

A CONFERENCE FOR THE EDUCATORS

## INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION, SCIENCES AND HUMANITIES

- Education
- Social Sciences
- Humanities
- Medical Sciences
- Management



**100.        WORLDVIEWS OF ANCIENT SCIENTISTS IN THE FIELD OF  
PHYSICS**

Sultonov Boymurod, Muzropova Zarnigor, Kurbanov Abror

362-364

**101.        NEED FOR TEACHING CULTURAL COMPETENCE.**

Normurodov. K.I., Khasanov. A.

365-367

**102.        OILA VA OILAVIY TARBIYA TUSHUNCHASINING AHAMIYATI**

Mirazimova Muxabbat Normatovna, Raxmonova Muslima Ilhom qizi

368-369

**103.        IN THE FIGHT AGAINST JUSTICE AND CORRUPTION AS AN  
EFFECTIVE ROAD**

Khidirov Khoshim Ibodullaevich, Kasimov Orif Fakhridin ogli

370-372

**104.        THE PRAGMATIC ASPECTS OF BORROWINGS**

Zilola Shukhrat qizi Mahmudova, Dj.Metyakubov

373-376

## OILA VA OILAVIY TARBIYA TUSHUNCHASINING AHAMIYATI

Mirazimova Muxabbat Normatovna-  
JDPI o'qituvchi

Raxmonova Muslima Ilhom qizi –  
talaba

**Annotasiya:** Ushbu maqolada oila va oilaviy tarbiya tushunchasining ahamiyati, olimlarimizning oila haqidagi fikrlari, oilaning jamiyatdagi o'rnini haqida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Oila, jamiyat, pedagogik qarash, oilaviy tarbiya, ota-ona, bola salomatligi, sog'lom oila.

Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida, kamol topishida, buyuk shaxs sifatida shakllanishida oila muhim o'rin tutadi.

Oila jamiyat ijtimoiy tuzumining birlamchi bo'g'ini bo'lib, inson shaxsini shakllantirish, tarbiyalash oiladan boshlanadi. Oila-murakkab ijtimoiy guruh. U biologik, ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi, shu sababli oilalar birlashib, jamiyatni tashkil etadi.

“Oila-kishilarning qon-qarindoshlik, mulk va manfaat umumiyliigi va talab-ehtiyojlarini birgalikda qondirishga asoslangan, maqsadi yagona bo'lgan majmua. Ya'ni mikroijtimoiy tuzilmadir”<sup>1</sup>-deb ta'kidlaydi. Jamiyatdagi o'zgarishlar oilaga ta'sirini ko'rsatganidek, oiladagi o'zgarishlar ham jamiyatga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Oila davlatning, jamiyatning asosiy tayanchi ekan, uning mutsahkamligi, tinch-totuvligi, farovonligi va barqarorligidan jamiyat manfaatdordir. Oilada ma'naviy va jismoniy yetuk avlodni shakllantirish, yoshlarni oilaviy hayot qurishga tayyorlash, zamonaviy kasb-hunar sirlari bilan qurollantirish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi “Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-146-son qarori 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-87-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida” 820-son qarorlarining bajarilishi mamlakatimizda sog'lom oilalarning vujudga kelishiga zamin yaratmoqda.

Oila-jamiyatning boshlang'ich ijtimoiy bo'g'inidir. U o'zida oila a'zolarining ehtiyojlari, qiziqishlari, mayllari, tarbiyasi va boshqa ijtimoiy faoliyat turlarini aks ettiradi. Ota-onalarning bola shaxsiga ilmiy dunyoqarash asoslari, ma'naviy-axloqiy, nafosat, mehnat va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida tizimli ta'sir ko'rsatish jarayoniga oilaviy tarbiya deyiladi.

“Oilaviy tarbiya doimo o'zining murakkab va ko'p qirraliligi, ajoyib va serjiloligi bilan ajralib turadi”<sup>2</sup> -, deb ta'kidlaydi A. Munavvarov. Har bir oila o'ziga xos bir olam, olam ichidagi va shu bilan birga olamga sig'magan olam, u tarbiya ishida o'ziga xos, takrorlanmas xususiyatlarni o'zida namoyon qiladi. Ana shuning uchun ham oilaviy tarbiyaning hammaga ma'qul tushadigan yo'l-yo'riqlari mavjud emas.

Oila va oilada bola tarbiyasi masalasi Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosida ham muhim o'rinni egallaydi. U o'zining qator asarlarida bolani salomatligi, uning tarbiyasi haqida eng muhimi bola – ruhiyatini o'rganish borasida ko'plab qimmatbaho fikrlarni asoslagan. Ularning hammasi bir butun bo'lib, muayyan pedagogik qarashlar tizimini tashkil etadi va u ma'naviy axloqiy barkamol insonni shakllantirish haqidagi g'oyaga borib taqaladi. Ibn Sinoning “Inshorat”, “Donishnoma”, “Xay ibn yaqzon”, “Salamon va ibsol”, “Tib qonunlari”, “Tadbir ul-manozil” kabi asarlarida tarbiyaning barcha shakllariga oid qarashlari mavjud. Bu qarashlar yuz yillar davomida avlodlar uchun tarbiyalash maktabi bo'lib kelmoqda. Masalan, uning “Tadbir ul-manozil” nomli asarida katta bir bob oila va oilaviy tarbiya masalasiga bag'ishlangandir. Ibn Sino oilada bola tarbiyasi

<sup>1</sup> O'zbekistonlik olim A. O'lmasov.

<sup>2</sup> A.Munavvarov.42-54-betlar. Uzbekistan

ancha murakkab va nozik bo'lib, uni bolaning yoshligidan boshlash va izchillik bilan olib borish lozimligini uqtiradi.

Oilalar respublikamiz shahar va qishloqlarining yagona ijtimoiy-iqtisodiy umumiyligi asosida rivojlanadi. Ayni paytda oilaviy turmush va oilaviy tarbiya o'zining milliy xususiyatlariga ham egadir. Pedagogik diagnostikada oila tarbiyasi o'z milliy va demografik xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanishini hisobga olish zarur. Oilaviy tarbiyada oilaning moddiy farovonligi, madaniy-ma'naviy [saviyasi](#), osoyishtaligi, oila a'zolarining soni, tarkibi alohida ahamiyat kasb etadi.

Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch — oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash va boshqalardan iborat.

Murg'ak tasavvurli bola ilk tarbiyani oilada oladi. Bola tarbiyasining ilk saboqlari haqida atoqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy o'zining “Turkiy guliston yoxud Axloq” kitobida quyidagi ibratli o'g'itlarni aytgan edi: “Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvatlantirmak, zexnimizni ravshanlashtirmak lozim”<sup>3</sup>.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Sh.Mirziyoyev - 2018 yil 19-yanvar Surxondaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'lagan nutqi.
2. O.Musurmonova. Oila ma'naviyati - milliy g'urur -T ., 1999-y.
  - a. Avloniy. “Turkiy guliston yohud axloq”. T., “O'qituvchi”. 1994 yil.
3. O.Hasanboeva va boshqalar. Oila pedagogikasi. T., “Aloqachi”, 2007 yil.
4. M. Imamova. Oilada bolalarning ma'naviy axloqiy tarbiyasi — T. “O'qituvchi”. 1999 yil
5. Mirazimova, M. (2021). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIGA QAMRAB OLISHNING AHAMIYATI. Scienceweb academic papers collection
6. Mirazimova Muxabbat Normatovna. (2022). Increasing The Coverage of Preschool Education for Children with Developmental Disabilities or Mental Disorders. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 4, 85–87. Retrieved from <http://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/660>
7. Kushakova, G. (2021). Oilada bolalarga oila byudjetini sarflash qoidalarini o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari. Мактабгача таълим журналі, 1(1). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/2791>
8. Kushakova, G. (2021). BOLALARNI MEHNATSEVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA OILANING O'RNI VA AHAMIYATI . Мактабгача таълим журналі, 1(1). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/3057>
9. Kushakova, G. (2021). 6-7 BOLALARNI OILADA MAKTABGA TAYYORLASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK AHAMIYATI. Мактабгача таълим журналі, 3(Preschool education journal). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/3938>
10. Kushakova, G. (2021). ОИЛАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ФАРЗАНД ТАРБИЯСИДАГИ ЎРНИ. Мактабгача таълим журналі, 3(Preschool education journal). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/3491>
11. KG Egamkulovna [Pedagogical conditions for the formation of tolerant thinking in youth in the family environment](#)
12. G.Kushakova .Tolerant Schoolchildren - The Future Of Promising Uzbekistan, *Academicia An International Multidisciplinary Research Journal (Scopus)* 1859-1862 Б

<sup>3</sup> A. Avloniy. “Turkiy guliston yohud axloq”. T., “O'qituvchi”. 1994